

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**MARAIMOVA UMIDAXON RUSTAMOVNA**

**FARG‘ONA VODIYSIDA O‘SUVCHI *ROEMERIA HYBRIDA*, *ROEMERIA  
REFRACTA* O‘SIMLIKLARINING KIMYOVIY TARKIBI VA BIOLOGIK  
FAOL MODDALARI**

**02.00.10-Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona-2025**

**Falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Maraimova Umidaxon Rustamovna:**

Farg‘ona vodiysida o‘svuchi *Roemeria hybrida*, *Roemeria refracta* o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va biologik faol moddalari..... 5

**Мараимова Умидахон Рустамовна:**

Химический состав и биологически активные вещества растений *Roemeria hybrida* и *Roemeria refracta*, произрастающих в Ферганской долине..... 21

**Maraimova Umidakhon Rustamovna**

The chemical composition and biologically active compounds of *Roemeria hybrida* and *Roemeria refracta* growing in the Fergana valley..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**MARAIMOVA UMIDAXON RUSTAMOVNA**

**FARG‘ONA VODIYSIDA O‘SUVCHI *ROEMERIA HYBRIDA*, *ROEMERIA  
REFRACTA* O‘SIMLIKLARINING KIMYOVIY TARKIBI VA BIOLOGIK  
FAOL MODDALARI**

**02.00.10-Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona-2025**

**Kimyo fanlari bo'yichafalsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/K942 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Aripova Salimaxon**

kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kamolov Luqmon Sirojiddinovich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Karimov Abdurashid Musaxonovich**

kimyo fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93, e-mail: fardu\_info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A.Ibragimov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi

kimyo fanlari doktori, professor

**Q.M.Sherg'oziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi,

kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sh.V.Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi

kimyo fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda o‘simliklar tarkibidagi biologik faol moddalar va ularni biologik faolligini o‘rganishga oid tadqiqotlarga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘simliklarni mineral va organik takibini o‘rganish va biologik faolligini tadqiq etish hamda ular asosida tanlab ta’sir etuvchan va ekologik bezarardori vositalarni yaratish muhim hisoblanadi. Biologik faol moddalarning muhim sinfi bo‘lgan alkaloidlar turli-tuman fiziologik faollikka ega bo‘lganligi uchun ular asosida turli kasalliklarni davolashda dori vositalarini yaratish va amaliyotga joriy etish bilan boshqa sinf birikmalaridan ajralib turadi. Shuning uchun, o‘zida alkaloidlar kabi biologik faol birikmalar saqlovchi tabiiy xomashyolarini kimyoviy tarkibini tadqiq etish hamda ular asosida tibbiyot va qishloq xo‘jaligi sohalari uchun dori vositalarini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turli-tuman biologik faol birikmalarni manbai hisoblangan *Papaveraceae* oilasi o‘simliklaridan alkaloidlar va boshqa birikmalarni ajratib olish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. *Roemeria* turkum o‘simliklari tarkibidan alkaloidlar, flavonoidlar va boshqa birikmalar ajratib olingan. Bu borada, *R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklarini kimyoviy tarkibini tahlil qilish, individual biologik faol birikmalarni ajratib olish, ularning kimyoviy tuzilishini va biologik faolliklarini aniqlash hamda ular asosida yangi ta’sir mexanizmiga ega turli dori vositalari yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamiz florasida keng tarqalgan mahalliy dorivor o‘simliklar asosida turli-tuman ta’sirga ega yangi dori vositalarini yaratish, aholini sifatli dori-darmon bilan ta’minlash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi PF-60-sonli farmoniga asosan dorivor vositalar va biologik faol qo‘shimchalar olish usullarini tatbiq etish “Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta’minlash darajasini 80 foizga yetkazish”ga yo‘naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada O‘zbekiston florasida keng tarqalgan *R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklari kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o‘rganish hamda ular asosida dori vositalari yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi “2022-2026-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-55-sonli<sup>1</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3532-sonli “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-sonli “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq olib borilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** *Roemeria* turkumi o‘simliklari tarkibidagi biologik faol moddalarni aniqlash tadqiqotlari J.Slavik, J.Podlaha, J.Podlahová, J.Symersky, F.Turechek, V.Hanush, Z.Koblicova, J.Trojanek, J.Slavík, B.Gozler, H.S.Gunes, A.J.Freyer, M.Shamma, S.N.Ebrahimi, Z.Bagheri-Zomorodi, A.Shakeri, M.Iranshahy, M.Masullo, S.Piacente, M.Iranshahi, N.A.M. Saleh, S.A.Maksoud, W.M.M.Amer, M.A.Onur, B.Kivcak, P.Ozic, H. Guinaudeau, E.Meteva boshqalar, MDH davlatlari olimlari - V.G.Kartsev, L.M.Lysenko, N.I.Naumenko, N.A.Ekimova, T.A.Kotkova kabi dunyoning yetakchi olimlari tomonidan olib borilgan.

O‘zbekistonda mazkur turkum kimyoviy tarkibini o‘rganish tadqiqotlari bilan S.Y.Yunusov, S.A.Salihov, Z.H.Habibov, V.A.Mnatsakanyan, S.T.Akramov va boshqalar shug‘ullanishgan. Yuqorida sanab o‘tilgan olimlar O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan *Roemeria* turkumi o‘simliklari tarkibidan alkaloidlar sapogeninlar ajratib olish, ularning tuzilishini aniqlash va biologik faolligi hamda amaliyotga tadqiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida tibbiyot sohasida qo‘llaniladigan samarali dori vositalari yaratilgan.

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar *Roemeria* turkumi o‘simliklarining turlari o‘z tarkibida turli sinflarga mansub biologik faol birikmalarini saqlaganligi sababli, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini dolzarbligidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti kimyo kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Tabiiy manbalardan biologik faol moddalar ajratib olish” mavzusidagi fundamental izlanishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘zbekiston florasida o‘sovchi *R. hybrida* va *R. refracta* kimyoviy tarkibini va biologik faolligini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

*R. hybrida* o‘simligining efir moylari tarkibini o‘rganish;

*R. hybrida* o‘simligining uglevod tarkibini o‘rganish;

*R. hybrida* o‘simligi moyini va moy kislota tarkibini o‘rganish;

*R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklarining oqsil miqdori hamda aminokislotalar va flavonoidlar tarkibini o‘rganish;

*R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklaridan alkaloidlarni ekstraksiya qilish va kolonkali xromatografiya usullar yordamida birikmalarni sof holda ajratish,

ajratib olingan alkalioidlarning kimyoviy tuzilishi va xossalarini kimyoviy hamda fizik-kimyoviy usullar yordamida tadqiq qilish;

*R. hybrida* va *R. refracta* o'simliklaridan ajratib olingan alkaloidlar yig'indisini biologik faolliklarini aniqlash;

*R. hybrida* o'simligining makro- va mikroelementlar tarkibini o'rganish;

Individual holda ajratib olingan moddalarni PASS online, SwissADME, Molekulyar doking dasturi yordamida biologik faolliklarini aniqlash. Gaussian-09 dasturi yordamida kvant tahlillarni amalga oshirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston hududida o'suvchi *R. hybrida* va *R. refracta* o'simliklarini kimyoviy birikmalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** *R. hybrida* va *R. refracta* o'simliklarining kimyoviy tarkibiga kiruvchi alkaloidlar, aminokislotalar, polisaxaridlar, flavonoidlar, yog' kislotalari, efir moylari, makro- va mikroelementlar hamda biologik faolligini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini bajarishda kimyoviy: ekstraksiya, haydash, kolonkali (KX) va yupqa qatlamli (YQX) xromatografiya, qayta kristallash, gidroditillyatsiya hamda uskunaviy usullari: IQ spektroskopiya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, induktiv-bog'langan plazmali mass-spektrometriya, gaz xromatografiyasi, xromato-mass-sprktrometriya shuningdek, biologik usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

*R. hybrida* o'simligining gul va tana qismlariga tegishli efir moylari GX-MS usuli yordamida sifat va miqdoriy jihatdan tahlil etilgan bo'lib, natijada gul qismi ko'p miqdorda monoterpenlar, tana qismi esa to'yingan uglevodorodlar saqlashi birinchi marta isbotlangan;

*R. hybrida* o'simligining yer usti qismidagi spirtida eriydigan shakarlar, pektin va gemitsellyulozaning miqdoriy tarkibi aniqlangan;

*R. hybrida* urug'laridan Sokslet va ultratovushli ekstraksiya usullari yordamida lipidlar va yog' kislotalarining tarkibi aniqlangan hamda mazkur yog' kislotalari tarkibida to'yinmagan yog' kislotalarning boy manba ekanligi qiyosiy tahlil bilan asoslangan;

Ilk bor *R. hybrida* va *R. refracta* o'simliklarining oqsil miqdori, aminokislota va flavonoid tarkibi aniqlangan;

*R. hybrida* o'simligidan 3 ta, *R. refracta* o'simligidan 2 ta alkaloid individual holda ajratib olingan, tuzilishlari zamonaviy spektral usullarda tasdiqlangan hamda 7 ta alkaloid tuzilishi xromotomass-spektrometriya usuli bilan identifikatsiya qilingan;

*R. hybrida* va *R. refracta* o'simliklari alkaloidlar yig'indisining mikroblarga qarshi samarali ta'siri va *R. hybrida* o'simligi tarkibidagi makro-mikro- va toksik elementlarning miqdoriy qiymatlari aniqlangan;

Remerin, Anonain, Izoremerin alkaloidlari uchun PASS Online va SwissADME dasturlari yordamida ularning turli kasalliklarga nisbatan farmakologik potentsiali aniqlangan. Bundan tashqari, Gaussian-09 ilovasi orqali kvant mexanikasiga asoslangan molekulyar tizimlarning energetik

holati, molekulyar tuzilish parametrlari, vibratsion chastotalar va boshqa xossalari modellashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*R. hybrida* va *R. refracta* o‘simligidan alkaloidlarni ajratib olishning samarali usuli ishlab chiqilgan;

*R. hybrida* va *R.refracta* o‘simliklari mikroblarga qarshi ta’sirga ega alkaloidlarning tabiiy manbasi sifatida isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ekstraksiya, kolonkali va yupqa qatlamli xromatografiya, haydash, kristallash hamda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari - YSSX, IBP-OES, GX, xromato-mass-spekrtometriya, xromatografik va biologik usullardan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi. Shuningdek tadqiqot natijalarining xorijiy va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda taqriz qilinuvchi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklarining oqsil miqdori, aminokislota, flavonoid, polisaxarid, lipid va yog‘ kislota tarkibi hamda makro- va mikroelementlar miqdori, shuningdek alkaloid tarkibi o‘rganilganligi, bu esa tabiiy birikmalar kimyosiga o‘rganilgan o‘simliklarning kimyoviy tarkibi haqidagi yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyiganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mahalliy *R. refracta* o‘simligidan remeridin alkaloidi ajratib olingan, u asosida remeridin gidroxloridi sintez qilingan, olingan birikma metall konstruksiya va qurilmalarda korroziya jarayoniga qarshi ingibitor sifatida samarali ishlashiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.** *R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklarining kimyoviy birikmalari va biologik faolligini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy *R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklarini alkaloidlar saqlash dinamikasi natijalaridan O‘zRFA O‘simlik moddalari kimyosi institutida “O‘zbekiston florasida o‘simliklarining alkaloidlari asosida yuqori biologik faolliklarni namoyon qiluvchi samarali dori vositalarini qidirish” fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zR FA ning 2025 yil 5 maydagi 4/1225-1112-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu o‘simliklardan kelajakda dorivor obekt sifatida foydalanish imkonini bergan;

mahalliy *R. refracta* o‘simligidan ajratib olingan remeridin gidroxlorid Muborak gazni qayta ishlash MCHJ korxonasi amaliyotga qo‘llanilgan (“O‘zneftgaz” AJ Muborak gazni qayta ishlash zavodining 2024 yil 10 iyundagi 523/GK-06-son ma’lumotnomasi). Natijada, neft-gaz sanoati metall konstruksiyalari va qurilmalarida ekspluatatsiya muddatini oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ilmiy tadqiqoti natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 2 ta xalqaro, 4 ta Respublika miqyosida o‘tkazilgan anjumanlarda ma’ruza qilingan va

muhokamalardan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 3 tasi Respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, maqsadi hamda vazifalari asoslab berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan hamda texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“*Roemeria hybrida* va *Roemeria refracta* o‘simliklarining umumiy tavsifi, kimyoviy tarkibi hamda biologik faolliklari”** deb nomlangan birinchi bobida *Roemeria* o‘simliklar turkumi hamda *R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklarining botanik tavsifi hamda tarqalish areali keltirib o‘tilgan. Bu o‘simliklardan ajratib olingan alkaloidlar va flavonoidlar hamda o‘simlikning xalq tabobatida qo‘llanilishi hamda biologik faolliklari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“*Roemeria hybrida* va *Roemeria refracta* o‘simliklarining kimyoviy tarkibini tahlil natijalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘simlikning kimyoviy tarkibi va biologik faollii tahlil natijalari bayon etilgan.

### ***R. hybrida* o‘simligining efir moylari tahlili**

*R. hybrida* gullaridan olingan efir moyining uchuvchan moddalar tarkibida 36 ta komponent aniqlanib, ular moy tarkibining 97,4% ini tashkil etdi. Ushbu efir moyining asosiy komponentlari quyidagilar bo‘ldi: kamfora (36,1%),  $\alpha$ -tuyon (27,1%), endo-borneol (9,0%),  $\beta$ -tuyon (7,9%) va terpinen-4-ol (2,3%) (1-jadval). *R. hybrida* barglaridan ajratilgan efir moyi bisiklik monoterpenoid ketonlar – kamfora,  $\alpha$ -tuyon va  $\beta$ -tuyonga boy bo‘lib, ularning umumiy miqdori 71,1% ni tashkil etdi.

1-jadval

### ***R. hybrida* o‘simligining gullaridan gidrodistillatsiya usulida olingan efir moyining uchuvchan moddalari**

No	Birikma nomi	RI	Miqdori, %
1	$\alpha$ -Terpinen	1163	0.1
2	izo-Amil spirti	1182	0.1
3	1,8-Sineol	1190	1.1

4	Dodekan	1200	0.2
5	$\gamma$ -Terpinen	1237	0.2
6	$\beta$ -Simen	1255	0.3
7	Prenil spirti	1296	0.1
8	$\alpha$ -Tuyon	1422	27.1
9	$\beta$ -Tuyon	1441	7.9
10	Kamfora	1506	36.1
11	Limonaketon	1545	0.2
12	Linalilformat	1555	0.6
13	Bornil atsetat	1567	0.2
14	6-Metil-3,5-geptadien-2-on	1577	0.5
15	Terpinen-4-ol	1589	0.3
16	Sabinaketon	1601	2.3
17	trans-Pinokarveol	1650	0.5
18	Mirtenilatsetat	1677	1.1
19	Neoizotuyol	1681	0.2
20	$\alpha$ -Terpineol	1694	0.4
21	endo-Borneol	1702	9.0
22	Digidrokarveol	1717	9.0
23	Karvon	1722	1.0
24	sis-Xrizantenol	1743	1.5
25	Kumin aldegid	1764	0.3
26	Mirtenol	1788	0.2
27	trans-Karveol	1805	0.2
28	sis-Karveol	1851	1.0
29	trans- $\beta$ -Ionon	1880	0.2
30	Metil evgenol	1949	0.1
31	Karvakrol	2024	1.0
32	Farnesol	2215	0.2
33	Geptakozan	2326	0.4
34	n-Geksadekan kislota	2700	0.2
35	Nonakosan	2842	1.9
36	$\alpha$ -Terpinen	2900	0.3
	<b>Jami</b>		<b>97.4</b>

RI – ushlanish indeksi

*R. hybrida* poyalaridan olingan efir moyida 33 ta uchuvchan komponent aniqlandi. Ulardan 29 ta komponent identifikatsiya qilinib, ular moy tarkibining 94,1% ni tashkil etdi. Ushbu efir moyining asosiy komponentlari quyidagilar bo'ldi: n-geksadekan kislota (30,6%), nonakozan (7,4%), fitol (6,5%), (Z,Z)-9,12-okta-dekadiyen kislota (6,1%) va (Z,Z,Z)-9,12,15-oktadekatriyen kislota (5,9%) (2-jadval). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aniqlangan komponentlarning uchdan biri to'yingan va to'yinmagan karboksil kislotalardan iborat bo'lib, ularning umumiy miqdori 51,3% ni tashkil etdi.

**2-jadval**

***R. hybrida* o'simligining poyasidan gidrodistillatsiya usulida olingan efir moyining uchuvchan moddalari**

№	Birikma nomi	RI	Miqdori, %
1	$\alpha$ -Terpinen	1167	0.4
2	izo-Amil spirit	1182	0.8

3	(E)-2-Geksenal	1208	0.7
4	Z-3-Geksenol	1355	0.5
5	Furfurol	1450	0.8
6	Benzaldegid	1505	0.6
7	Izokariofillen	1590	0.5
8	Benzol atsetaldegid	1617	1.0
9	4-Etil-3,4-dimetil-2,5-tsiklogeksadien-1-on	1624	0.7
10	Benzol metanol	1856	0.7
11	Benzol etanol	1890	0.8
12	trans-p-Ionon	1928	0.6
13	Identifikatsiya qilinmagan	1987	1.4
14	Oktan kislota	2050	1.3
15	Geksagidrofarnesil atseton	2143	4.9
16	2-Metoksi-4-vinilfenol	2165	2.8
17	Dekan kislota	2260	0.3
18	Digidroaktinidiolid	2307	0.8
19	Dodekan kislota	2488	0.6
20	Pentakosan	2500	0.7
21	Fitol	2622	6.5
22	Tetradekan kislota	2684	2.9
23	Geptakosan	2700	1.4
24	n-Geksadekanoik kislota	2842	30.6
25	Identifikatsiya qilinmagan	2872	1.9
26	Identifikatsiya qilinmagan	2884	1.2
27	Nonakosan	2900	7.4
28	(E)-9-Geksadetsen kislota	2919	0.8
29	(Z)-9-Oktadetsen kislota	3060	4.1
30	Diizooktilftalat	3110	1.0
31	(Z,Z)-9,12-Oktadekadien kislota	3157	6.1
32	(Z,Z,Z)-9,12,15-Oktadekatrien kislota	3288	5.9
33	Identifikatsiya qilinmagan	3418	3.6
	<b>Jami</b>		<b>94.1</b>

RI – ushlanish indeksi

Ushbu natijalar *R. hybrida* gul efir moyining asosiy biofaol komponent sifatida monoterpenoid ketonlarga, poya efir moyining esa yog' kislotalariga boyligini tasdiqlaydi. Shu sababli, gullardan olingan efir moyi farmatsevtika va kosmetika sohalarida, poyalardan olingan efir moyi esa yog' kislotalari manbai sifatida foydalanish uchun istiqbolli xom ashyo hisoblanadi.

### ***R. hybrida* o'simligi yer ustki qismidagi uglevodlar tahlili**

Tadqiqot natijasida *R. hybrida* L. ning yer ustki qismida quyidagi uglevod turlari mavjudligi aniqlandi:

*Spirtda eriydigan shakarlar.* Ekstraksiya natijasida spirtda eriydigan shakarlardan glyukoza, fruktoza va saxaroza borligi aniqlandi.

*Suvda eriydigan polisaxaridlar.* Suvli ekstraksiya usuli yordamida *R. hybrida* L. ning yer ustki qismidan 2,4 g (2,4%) suvda eriydigan polisaxarid ajratildi. Suvda eriydigan polisaxaridlarning asosiy monosaxaridlari Glu, Ara va Gal bo'lib, boshqa monosaxaridlar kamroq miqdorda mavjuddir.

*Pektin moddalari.* Pektin moddalarining unumi 4,8 g (4,8%) ni tashkil etdi. Pektin moddalarning monosaxarid tarkibi galakturon kislotasi ( $R_f = 0,14$ ), galaktoza ( $R_f = 0,37$ ), glyukoza ( $R_f = 0,36$ ), arabinoza ( $R_f = 0,48$ ) va oz miqdorda (xromatografik zonalar noaniq va zaif rangga ega) ksiloza ( $R_f = 0,6$ ) bilan ifodalanishi ko'rsatilgan.

*Gemitsellyuloza.* Gemitsellyulozaning unumi 2,1 g (2,1%) ni tashkil etdi. Xromatografik tahlil natijasida gemitsellyuloza tarkibida glyukuron kislotasi ( $R_f = 0,14$ ), galaktoza ( $R_f = 0,37$ ), glyukoza ( $R_f = 0,36$ ), arabinoza ( $R_f = 0,48$ ), ksiloza ( $R_f = 0,56$ ), ramnoza ( $R_f = 0,67$ ) borligi aniqlandi. 3-Jadvaldan ko'rinib turibdiki, pektin moddalarning yer ustki qismida polisaxaridlar dominant bo'lib, ularning miqdori 4,8%, bunda asosiy monosaxaridlar galaktoza, glyukoza va arabinoza hisoblanadi. PM va GMS shuningdek arabinoza va ksilozaning yuqori miqdori bilan tavsiflanadi. Bu GMS uchun xos bo'lib, ularning asosini ksilanlar tashkil etadi. Yer ustki qismidan ajratib olingan SEPS da arabinoza, glyukoza kabi monosaxaridlar ustunlik qilib, galaktoza oz miqdorda bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha namunalarda yetarli miqdorda glyukoza, arabinoza va ksiloza mavjud bo'ladi.

### 3-jadval

#### *R. hybrida* L. polisaxaridlarining turli guruhlari miqdori va ularning monosaxarid tarkibi

№	Uglvod turi	Unum, %	Monosaxarid tarkib						GalUA
			Gal	Glu	Ara	Man	Ksil	Rha	
Yer ustki qism	SEPS	2.4	2.5	4.5	2.5	-	1.0	-	-
	PM	4.8	1.5	1.5	6.0	1.0	1.0	-	+
	GMS	2.1	1.0	1.0	4.0	-	3.0	1.0	+

*Eslatma:* SEPS - suvda eriydigan polisaxaridlar, PM - pektin moddalari, GMS - gemitsellyulozalar, Gal - galaktoza, Glu - glyukoza, Ara - arabinoza, Man - mannoza, Ksil - ksiloza, Rha - ramnoz, GalUA - galakturon kislota.

#### *R. hybrida* o'simligi tarkibidagi yog' kislotalar tahlili

*R. hybrida* o'simligi urug'lari moyi tarkibida turli xil yog' kislotalari mavjud bo'lib, ular neytral lipidlar, glikolipidlar va fosfolipidlar fraksiyalarida taqsimlanadi. *R. hybrida* urug'lari lipidlari ikki xil usulda ekstraksiya qilindi. Sokslet usulida ekstraksion benzin yordamida olingan moy miqdori 31,23%, ultratovushli ekstraksiya usulida esa n-geksan yordamida 32,34% ni tashkil etdi (4-jadval).

### 4-jadval

#### *R. hybrida* o'simligi urug'lari moyining lipidlar tarkibi, %

Ko'rsatkich	Sokslet usuli	Ultratovush usuli
Neytral lipidlar	31,23	32,34
Qutbli lipidlar	1,02	0,93
Karotinoidlilar (mg/KOH)	40,85	41,00
Erkin yog' kislotalari	0,71	0,80

Sokslet usulida olingan moyda qutbli lipidlar miqdori ultratovushli ekstraksiyadan ko'ra 0,09% ga ko'proq bo'ldi. Neytral lipidlar, glyukolipidlar va fosfolipidlar tarkibidagi yog' kislotalari miqdorlari 5 va 6-jadvallarda keltirilgan.

Ikkala usulda to‘yinmagan yog‘ kislotalari mos ravishda 87,90% va 87,84%, to‘yingan yog‘ kislotalari esa 12,10% va 12,16% ni tashkil qildi. Bu natijalar ekstraksiya usulining yog‘ kislotalari tarkibiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmasligini ko‘rsatmoqda. To‘yinmagan yog‘ kislotalari umumiy tarkibning katta qismini tashkil qiladi. Neytral lipidlarda – 87,90%, glikolipidlarda – 35,84%, fosfolipidlarda – 78%. Linol kislotasi (18:2) yuqori miqdorda aniqlangan. Neytral lipidlar tarkibida – 70,89%, glikolipidlarda – 11,40%, fosfolipidlarda – 14,27% ni tashkil etgan. Palmitin kislotasi (16:0) eng ko‘p uchraydigan to‘yingan yog‘ kislotasi hisoblanadi. U neytral lipidlarda – 9,64%, glikolipidlarda – 50,41%, fosfolipidlarda – 39,95% ni tashkil qilgan.

#### 5-jadval

#### **R. hybrid o‘simligi urug‘lari moyi neytral lipidlar, glikolipidlar va fosfolipidlarning yog‘ kislotalari tarkibi (GX, %) (Sokslet usuli)**

Yog‘ kislotalar	NL	GL	FL
Kapron kislotasi, 10:0	-	0,15	0,35
Laurin kislotasi, 12:0	-	0,15	1,69
Miristin kislotasi, 14:0	0,13	0,93	0,70
Pentadekan kislotasi, 15:0	-	0,35	0,28
Palmitin kislotasi, 16:0	9,64	50,41	39,95
Palmitolein kislotasi, 16:1	-	0,43	0,70
Margarin kislotasi, 17:0	0,02	0,48	0,21
Stearin kislotasi, 18:0	1,96	9,39	9,17
$\omega$ -9 olein, 18:1 + $\omega$ -3 linolein kislotalari, 18:3	16,86	22,97	28,07
$\omega$ -6 Linol kislotasi, 18:2	70,89	11,40	14,27
Araxin kislotasi, 20:0	0,35	1,22	1,05
Eykozen kislotasi, 20:1	0,15	1,04	1,74
Dokoza kislotasi, 22:0	-	0,56	1,23
Lignotserin kislotasi, 24:0	-	0,52	0,59
$\Sigma$ to‘yingan yog‘ kislotalar	12,10	64,16	55,22
$\Sigma$ to‘yinmagan yog‘ kislotalar	87,90	35,84	44,78

Olein (18:1) va linolein (18:3) kislotalarining miqdori neytral lipidlarda - 16,86%, glikolipidlarda – 22,97%, fosfolipidlarda esa – 28,07% ni tashkil etgan. Qo‘llanilgan GX sharoitlarida 18:1 va 18:3 metil efirlari ajralmasligi sababli, linolein kislotasi (18:3) mavjudligi  $Ag^+$ -TXX usuli yordamida aniqlangan. Bu jarayonda xromatografik harakatchanlik tahlil qilingan bo‘lib,  $R_f$  0.50 ga ega bo‘lgan dog‘ harakatchanligi  $R_f$  0.52 bo‘lgan zig‘ir yog‘ining 18:3 metil efiri bilan taqqoslanib tasdiqlangan. Kapron (10:0), laurin (12:0), miristin (14:0), dokoza (22:0) va lignotserin (24:0) kislotasi juda past konsentratsiyada mavjudligi aniqlandi.

#### 6-jadval

#### **R. hybrida o‘simligi urug‘lari moyi neytral lipidlar, glikolipidlar va fosfolipidlarning yog‘ kislotalari tarkibi (GX, %) (Ultratovush usuli)**

Yog‘ kislotalar	NL	GL	FL
Kapron kislotasi, 10:0	-	-	-
Laurin kislotasi, 12:0	-	-	-

Miristin kislota, 14:0	0,12	0,88	0,84
Pentadekan kislota, 15:0	-	0,32	0,36
Palmitin kislota, 16:0	9,57	45,65	46,79
Palmitolein kislota, 16:1	0,09	-	-
Margarin kislota, 17:0	0,05	0,49	0,48
Stearin kislota, 18:0	1,95	9,55	10,30
$\omega$ -9 olein,18:1 + $\omega$ -3 linolein kislotalari,18:3	16,55	25,01	28,26
$\omega$ -6 Linol kislotalari, 18:2	71,05	11,51	10,38
Araxin kislota, 20:0	0,36	1,36	1,28
Eykozen kislota, 20:1	0,15	1,27	-
Dokozan kislota , 22:0	0,07	3,39	0,76
Lignotserin kislota, 24:0	0,04	0,57	0,55
$\Sigma$ to'yingan yog' kislotalar	12,16	62,21	61,36
$\Sigma$ to'yinmagan yog' kislotalar	87,84	37,79	38,64

Sokslet asbobida ekstraksiyalash (5-jadval) va ultratovush yordamida ekstraksiyalash (6-jadval) usullari orqali olingan lipid fraksiyalari tarkibi tahlil qilinganda neytral lipidlar tarkibida to'yingan yog' kislotalari miqdori ikkala usulda ham deyarli bir xil (~12%),  $\omega$ -6 linol kislota (18:2) miqdori Sokslet usuliga (70,89%) nisbatan, ultratovush usulida biroz yuqoriroq (71,05%) ekanligi,  $\omega$ -9 olein va  $\omega$ -3 linolein kislotalari (18:1, 18:3) Sokslet usulida 16,86%, ultratovush usulida biroz pastroq (16,55%) ekanligi hamda palmitin kislota (16:0) ikkala usulda ham deyarli bir xil (~9,6%) ekanligi aniqlandi. Neytral lipidlar tarkibi ikkala usulda ham katta farq qilmaydi, lekin ultratovush usuli yordamida olinadigan yog' fraksiyasi biroz ko'proq to'yingan komponentlarga ega.

Glikolipidlar solishtirilganda to'yingan yog' kislotalari Sokslet usulida 64,16%, ultratovush usulida 62,21% ni;  $\omega$ -9 olein va  $\omega$ -3 linolein (18:1, 18:3) Sokslet usulida 22,97%, ultratovush usulida biroz yuqoriroq 25,01% ekanligi; palmitin kislota (16:0) Sokslet usulida 50,41%, ultratovush usulida biroz pastroq 45,65% ekanligi aniqlandi. Glikolipidlar tarkibida ultratovush usulida to'yingan yog' kislotalari biroz kamroq, lekin  $\omega$ -3 va  $\omega$ -9 kislotalari yuqoriroq miqdorda saqlangan. Bu esa ultratovush usulining biologik faol lipidlarni yaxshiroq ajratib olishiga ishora qiladi.

Fosfolipidlar solishtirilganda to'yingan yog' kislotalari miqdori Sokslet usulida 55,22%, ultratovush usulida 61,36% ni, to'yinmagan yog' kislotalari miqdori esa Sokslet usulida 44,78%, ultratovush usulida 38,64% ni tashkil etgan.  $\omega$ -9 olein va  $\omega$ -3 linolein (18:1,18:3) miqdori Sokslet usulida 28,07%, ultratovush usulida biroz yuqoriroq 28,26% ni tashkil etgan.

### ***R. refracta* o'simligi tarkibidagi erkin aminokislotalar tahlili**

*R. refracta* o'simligi yer ustki qismining aminokislota tarkibi YSSX usulida o'rganildi. Aniqalangan aminokislotalarning miqdori 52,998 mg/g ni tashkil etdi (7-jadval). Aminokislotalarning miqdori quyidagi qatorda ortib boradi: lizin < metionin < glitsin < tirozin < triptofan < izoleytsin < asparagin kislota < glutamin kislota < treonin < leytsin < fenilalanin < serin < valin < asparagin < glutamin < prolin < arginin < gistidin < sistein. Eng ko'p miqdorda sistein aminokislotalari

aniqlanib, ja'mi aminokislotalarning 42,39% ga tengdir. Sistein aminokislotasining miqdori gistidiga nisbatan 5,62 va lizinga nisbatan 50,63 marta ko'pdir. Almashinmaydigan aminokislotalarning miqdori umumiy aminokislotalar miqdorining 24,81% ni tashkil etdi.

#### 7-jadval

##### *R. refracta* o'simligi aminokislota tarkibi (mg/g)

Aminokislota	<i>R. refracta</i>	Aminokislota	<i>R. refracta</i>
Asparagin kislota	1,076	Prolin	2,354
Glutamin kislota	1,104	Tirozin	0,616
Serin	1,738	Valin	1,930
Glitsin	0,475	Metionin	0,469
Asparagin	2,102	Gistidin	3,998
Glutamin	2,238	Izoleytsin	0,868
Sistein	22,464	Leytsin	1,578
Treonin	1,479	Triptofan	0,689
Arginin	3,610	Fenilalanin	1,700
Alanin	2,072	Lizin	0,434

Almashinmaydigan aminokislotalar orasidan eng ko'p miqdorda gistidin va eng kam miqdorda lizin aniqlanib, ularning miqdorlari nisbati 9,22:1 ga tengdir. Almashinmaydigan aminokislotalarning miqdori quyidagi qatorda: lizin < metionin < triptofan < izoleytsin < treonin < leytsin < fenilalanin < valin < gistidin.

##### *R. refracta* va *R. hybrida* o'simliklari tarkibidagi oqsillar tahlili

*R. refracta* va *R. hybrida* o'simliklarining urug'lari tarkibida eng yuqori miqdorda oqsil mavjud bo'lib, tanasida esa nisbatan kamroq miqdorda aniqlangan (8-jadval). Oqsillar miqdorining urug' va vegetativ qismlar orasida farq qilishi o'simlikning biologik va fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

#### 8-jadval

##### *R. refracta* va *R. hybrida* o'simliklari tarkibidagi oqsillar miqdori

№	Namuna (20 g)	Umumiy oqsillar miqdori, %
1	<i>R. hybrid</i> yer ustki qismi	8.22
2	<i>R. refracta</i> yer ustki qismi	9.96
3	<i>R. hybrida</i> urug' qobig'i	16.43
4	<i>R. hybrida</i> urug'i	25.56
5	<i>R. refracta</i> urug'i	24.14

Oqsillar miqdori bo'yicha urug'lar yer ustki qismiga nisbatan yuqori bo'ldi. *R. refracta* yer ustki qismi *R. hybrida* yer ustki qismiga qaraganda ko'proq oqsilga ega, urug' qobig'ida ham oqsillar ancha ko'p miqdorda aniqlangan.

##### *R. refracta* va *R. hybrida* o'simliklari tarkibidagi flavonoidlar tahlili

*R. refracta* va *R. hybrida* o'simliklarining yer ustki qismi flavonoid tarkibi ham YSSX usuli bilan o'rganildi. Apigenin, gipolaetin, gipolaetin, rutin, gipolaetin 7-O-D-Gly, izoramnetin, giperazid, kvartetsetinva gall kislotasining standart eritmalaridan foydalanildi. O'rganilgan flavonoidlar va gall kislotasi orasidan apigenin, rutin, giperazid va gall kislotalari miqdori aniqlandi (9-jadval).

***R. refracta* va *R. hybrida* o‘simliklari tarkibidagi flavonoidlarning tarkibi va miqdori (mg/100 g)**

Flavonoidlar	<i>R. refracta</i>	<i>R. hybrida</i>	<i>R. refracta</i> urug‘i
Apigenin	27,160	65,485	10,745
Rutin	17,897	34,598	25,125
Giperazid	-	13,928	20,541
Gall kislota	96,584	72,625	89,689

Ushbu natijalar shuni anglatadiki, *R. hybrid* o‘simligi flavonoidlarning umumiy miqdori va ayrim asosiy flavonoidlar bo‘yicha ustun, *R. refracta* esa gall kislotasi va ayrim flavonoidlar bo‘yicha yuqori qiymatga ega. Ushbu farqlar o‘simliklarning farmakologik xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

***R. hybrida* o‘simligining alkaloidlari tahlili**

*R. hybrida* o‘simligining yer ustki, urug‘, urug‘ qobig‘i va barg qismlarini ekstraktsiya qilish natijasida alkaloidlar yig‘indisining homashyoning quruq massaga nisbatan foiz miqdori quyidagi tartibda: urug ‘lari < barglari < yer ustki qismi < urug‘ qobig‘i (10-jadval). Alkaloidlar yig‘indisi eng ko‘p miqdorda urug‘ qobig‘ida aniqlangan.

***R. hybrida* o‘simligining turli qismlaridan alkaloidlar yig‘indisini (AY) ekstraktsiya qilish natijalari**


Qism	Homashyo, g	Umumiy AY, mg	%
Yer ustki qismi	50	89.2	0,18
Urug ‘ qobig‘i	50	111.1	0,22
Barg	50	79.6	0,16
Urug‘	50	63.8	0,13

*R. hybrida* o‘simligidan ajratib olingan alkaloidlarni xromatomass-spektrometriya usuli bilan identifikatsiya qilindi. Sof holda 3 ta alkaloid ajratib olindi va ularning mass-spektrlari orqali, suyuqlanish harorati va  $R_f$  qiymatlari orqali tasniflandi. Suyuqlanish harorati 239-240°C ga,  $R_f=0.30$  ga teng bo‘lgan modda ilgari o‘simlikdan ajratib olingan remeridin (**1**) alkaloidiga to‘g‘ri keldi. Mass-spektr tahlilini o‘rganish natijasi molekulyar ion cho‘qqisi 533.2161 ga tengligi aniqlandi. Suyuqlanish harorati 210°Cga  $R_f=0.54$  ga teng bo‘lgan alkaloid mass-tahlildan m/e  $M^+$  533.08 (55), 518.13 (85), 504.01 (100), 473.15 (25), 458.9 (10) qiymatli fragment ionlarini borligi uning roegibridin (roehybridin) (**2**) ekanligini tasdiqlaydi. Amorf holatdagi,  $R_f=0.46$  ga teng bo‘lgan alkaloid mass-tahlilidan m/e  $M^+$  549.16 (25), 548.03 (80), 534.07 (100), 502.25 (5), 303.32 (15) qiymatli fragment ionlarini borligi uning roxibridin  $\beta$ -N-oksidiga (**3**) mos kelishini tasdiqlaydi. Alkaloidlar yig‘indisi tarkibidagi birikmalar yuqori samarali xromotamass-spektrometrida identifikatsiya qilindi.

### *R. refracta* o'simliging alkaloidlari tahlili

*R. refracta* yer ustki qismini alkaloidlarini o'rganish natijasida 2 ta individual holatdagi alkaloidlar ajratib olindi. Suyuqlanish harorati 239-240°C ga,  $R_f=0.30$  ga teng bo'lgan modda remeridin (2.1), m/e  $M^+$  533.21 (15), 501.15 (5), 257.0 (85), 244.00 (90), 242.00 (100), 239.02 (70), 228.67 (17). Suyuqlanish harorati 102-103°C ga,  $R_f=0.22$  ga teng bo'lgan modda remerinning (4) tuzilishi YaMR spektr orqali isbotlandi.  $^1H$  YaMR (500 MGts,  $\delta$ , m.u.,  $CDCl_3$ ): 6.01(1H, d,  $J=1$ ), 5.86 (1H, d,  $J=1$ ), 6.48 (1H, s), 3.09 (1H, m), 2.58 (1H, dd,  $J=16,3.5$ ), 3.04 (1H, m), 2.51 (1H, m), 3.19 (1H, br.d,  $J=14$ ), 3.10 (1H, dd,  $J=18,4.5$ ), 2.67 (1H, t,  $J=14$ ), 7.19 (1H, m), 7.24 (1H, t,  $J=7$ ), 7.16 (1H, t,  $J=7$ ), 7.99 (1H, d,  $J=7.5$ );

$^{13}C$  YaMR (100 MGts,  $\delta$ , m.u.,  $CDCl_3$ ): 142.73 (C-1), 137.04 (C-2), 107.49 (C-3), 28.72 (CH-4), 53.41 (CH<sub>2</sub>, C-5), 43.42 (N-CH<sub>2</sub>, C -6), 61.98 (CH, C-6a), 126.24 (CH, C-6b), 34.34 (CH<sub>2</sub>, C -7), 135.07 (C, C-7a), 128.24 (CH, C-8), 127.12 (CH, C-9), 127.59 (CH, C-10), 126.91 (CH, C-11), 131.01 (C, C-11a), 116.46 (C, C-11b).



1-rasm. *R. refracta* va *R. hybrida* o'simliklaridan ajratilgan alkaloidlarning tuzilishi

### *R. hybrida* o'simligi mikroblarga qarshi ta'sirini o'rganish

Olingan namunalarning tekshirilayotgan mikroorganizmlarga nisbatan mikroblarga qarshi ta'sirini o'rganishda *B. subtilis* sinov kulturasiga nisbatan mikroblarga qarshi faollik aniqlandi (11-jadval).

Maksimal o'sishni ingibirlash zonasi 1-son namunasi uchun kuzatilgan va 2500 mkg/ml konsentratsiyada 29 mm, 250 mkg/ml konsentratsiyada esa 21 mm bo'lgan. Sinov mikroorganizmlari *C. albicans*ga qarshi mikroblarga qarshi ta'sirini o'rganishda, o'rganilgan konsentratsiyalarda Petri chashkalarda o'sish kuzatilmadi.

### 11-jadval

#### *R. hybrida* va *R. refracta* o'simligidan olingan alkaloidlar yig'indisining *B. subtilis* sinov kulturasiga nisbatan mikroblarga qarshi faolligi

№	Namuna	Konsentratsiya (µg/ml)	O'sishni ingibirlash zonasi (mm)	Konsentratsiya (µg/ml)	O'sishni ingibirlash zonasi (mm)
1	RHUAY	2500	29	250	21
2	RHPAY	2500	25	250	19
3	RRPAY	2500	26	250	19
4	GENTAMITSIN	2500	22	250	20

Bu esa bu namunalar Petri chashkalardagi sinov kulturalarining o'sishini to'liq bostirganligini ko'rsatishi mumkin, chunki nazorat variantida, sinov kulturalarining o'zi ekilganida, o'sish kuzatildi (12-jadval).

### 12-jadval

#### *R. hybrida* va *R. refracta* o'simligidan olingan alkaloidlar yig'indisining sinov kulturalariga nisbatan ingibirlash zonasi

№	Moddaning nomi	Ingibirlash zonasi diametri (mm)				
		Gram-musbat bakteriyalar		Gram-manfiy bakteriyalar		Zamburug'lar
		<i>B. subtilis</i>	<i>S. aureus</i>	<i>E. coli</i>	<i>P. aeruginosa</i>	<i>C. albicans</i>
1	RHUAY	29	-	-	12	-
2	RHPAY	25	-	24	-	-
3	RRPAY	26	18	19	18	-
4	GENTAMITSIN	22	-	14	-	-

#### *R. hybrida* o'simligi tarkibidagi makro- va mikroelementlar tahlili

*R. hybrida* o'simligi tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdoriy jihatdan tahlil qilindi. O'simlik tarkibidagi elementlarning umumiy miqdori turli organlarda farqlandi. Minerallarning umumiy miqdori quyidagi tartibda boradi: poya < barglari < urug' < urug' qobig'i(13-jadval).

### 13-jadval

#### *R. hybrida* o'simligi tarkibida aniqlangan makro va mikroelementlar (mkg/kg)

№	Elementlar	Urug'lari	Urug' qobig'i	Barglari	Poya
1	Na	42,50	51,20	28,40	22,60
2	K	886,00	973,00	496,00	207,00
3	Ca	66,20	75,20	43,10	22,70
4	Sc	0,049	0,068	0,043	0,048
5	Cr	0,31	0,57	0,29	0,24
5	Mn	8,40	9,80	10,30	7,90
6	Fe	6,29	11,40	6,70	4,10
7	Co	0,19	0,31	0,28	0,13
8	Ni	2,20	4,90	2,40	1,80
9	Zn	0,80	1,10	0,70	0,70
10	As	0,0012	0,0013	0,0012	0,0011
11	Se	0,39	0,44	0,36	0,27
12	Br	2,40	2,90	3,20	2,00
13	Rb	3,80	3,30	4,10	2,90
14	Sr	5,10	8,60	8,30	6,00
15	Mo	0,21	0,43	0,26	0,22
16	Cs	0,024	0,022	0,028	0,039
17	Ba	6,40	8,00	5,10	5,60
18	La	0,33	0,36	0,22	0,29
19	Ce	0,32	0,38	0,29	0,27
20	Nd	0,11	0,12	0,15	0,13
21	Sm	0,022	0,038	0,029	0,025
22	Tb	0,006	0,005	0,004	0,007
23	Yb	0,032	0,03	0,028	0,025
24	Lu	0,003	0,002	0,0028	0,0024

25	Hf	0,11	0,12	0,15	0,13
26	Ta	0,01	0,013	0,011	0,019
27	W	0,04	0,05	0,06	0,07
28	Re	0,003	0,002	0,006	0,004
29	Au	0,002	0,002	0,0023	0,0015
30	Eu	0,016	0,017	0,019	0,012
31	Th	0,055	0,066	0,049	0,062
32	U	0,01	0,012	0,013	0,011

Urug‘, poya va barglarda marganes hamda urug‘ qobig‘ida temir eng ko‘p miqdorda ekanligi aniqlandi. O‘simlikning hech qaysi organlarida mis aniqlanmadi. Bundan tashqari, o‘simlik tarkibida zaharli elementlardan faqat mishyak aniqlanib, uning miqdori turli organlarda 0,0011-0,0013 mkg/g ni tashkil etdi va deyarli barcha organlarda bir xil taqsimlangan ekanligi aniqlandi. Bu esa mishyakning o‘simlikka toksikologik yoki farmakologik jihatdan sezilarli ta‘sir ko‘rsatmasligini bildiradi.

Dissertatsiyaning “**Anonain, remerin, 1-isoremerin alkaloidlarining PASS ONLINE, SwissADME, molekulyar doking dasturlari yordamida olingan biologik faolliklari va gaussian-09 dasturi bilan amalga oshirilgan kvant tahlillar**” deb nomlangan uchinchi bobida *R. hybrida* va *R. refracta* o‘simligidan olingan alkaloidlarning turli parametrlari modellashirish usullari bilan tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning “***R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklarini tadqiq qilish**” deb nomlangan uchinchi bobida o‘simliklarning efir moylari, uglevodlari, lipid va yog‘ kislota tarkibi, aminokislotalar, oqsillar, flavonoidlar, alkaloidlari, makro-, mikro- va toksik-elementlar tarkibi hamda biologik faolligini aniqlash usullari keltirilgan.

## XULOSALAR

*R. refracta* va *R. hybrida* o‘simliklarining kimyoviy komponentlari va biologik faolligini o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. *R. hybrida* va *R. refracta* o‘simliklari flavonoid hamda polisaxaridlar tarkibi aniqlandi. Apigenin, rutin, giperazid va gall kislotalarikiabi flavonoidlar hamda suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalari va gemitsellyulozalar o‘rganildi.

2. *R. refracta* va *R. hybrida* o‘simliklarining oqsil miqdori aniqlandi. *R. refracta* o‘simligi tarkibida oqsil sintezida ishtirok etuvchi 20 ta aminokislotalar mavjudligi aniqlandi. Ko‘proq miqdorda sistein, gistidin, arginin, prolin va metionin aniqlandi.

3. *R. hybrida* o‘simligining poyasidan va gullaridan gidrodistillatsiya usulida olingan efir moylarining tarkibi o‘rganildi. Gullaridan olingan efir moylari tarkibida kamfora (36,1%),  $\alpha$ -tuyon (27,1%), endo-borneol (9,0%),  $\beta$ -tuyon (7,9%) va terpinen-4-ol (2,3%) hamda poyasining efir moylarida n-geksadekan kislotalasi (30,6%), nonakozan (7,4%), fitol (6,5%), (Z,Z)-9,12-okta-dekadien kislotalasi asosiy komponent sifatida aniqlandi.

4. *R. hybrid* o‘simligining lipid va yog‘ kislota tarkibi aniqlandi. Sokslet usulida ekstraksiya benzin yordamida olingan moy miqdori 31,23% va ultratovushli ekstraksiya usulida esa n-geksan yordamida 32,34% ni tashkil etdi. Neytral lipidlar tarkibida linol kislota yuqori miqdorda aniqlanib, Sokslet usulida ajratib olingan moy tarkibida 70,89% va ultratovush ta’sirida olingan moy tarkibida 71,05% ni tashkil etdi.

5. *R. hybrida* o‘simligidan 3 ta *R. refracta* o‘simligidan 2 ta alkaloidlar ajratib olindi, tuzilishi fizik-kimyoviy usullar bilan isbotlandi. *R. hybrid* va *R. refracta* o‘simligidan olingan alkaloidlar yig‘indisining mikroblarga qarshi ta’siri o‘rganildi, tajribalar natijasida, *B. subtilis* va *S. aureus* sinov madaniyatlari uchun minimal ingibitor konsentratsiya (MIC) va minimal bakteritsid konsentratsiyasi (MBC) 500 mkg/ml ni tashkil etishi aniqlandi;

6. PASS online tahlil natijalariga ko‘ra remerin va isoremerin Parkinson kasalligi, sigma retseptorlarni faollashtirish stress, dipressiya kasalliklarini davolashda, mushaklarni davolashda samarali dori vositasi bo‘la olishini ko‘rsatdi. Sviss ADME oshqozon-ichak traktida so‘rilish va miyaga kirish farmokokinetikasi tahlili, molekulaning lipofilligi va qutbliligi hisoblandi. Remerin, anonain, izoremerin Parkinson kasalligiga tegishli oqsil (7C62) bilan bog‘lanish energiyalari, konformatsion barqarorligi, optik mosligi hisoblandi.

Guassian-09 dasturi orqali molekullardagi atomlarning zaryad taqimoti, bog‘ uzunliklari, HOMO va LUMO energiyalari tahlil qilindi.

7. Neytron-aktivatsion analiz usuli yordamida *R. hybrida* o‘simligi poya, barglari, urug‘ va urug‘ qobig‘ining makro-, mikro- va toksik- element tarkibini o‘rganish natijasida 32 element aniqlandi; asosiy elementlar sifatida kaliy, kalsiy va natriy ekanligi ko‘rsatildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**МАРАИМОВА УМИДА РУСТАМОВНА**

**ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫЕ  
ВЕЩЕСТВА РАСТЕНИЙ *ROEMERIA HYBRIDA* И *ROEMERIA  
REFRACTA*, ПРОИЗРАСТАЮЩИХ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ**

**02.00.10-Биоорганическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)  
по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Фергана–2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/K942.**

Докторская диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Ферганском государственном университете ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:**

**Арипова Салимахон**  
доктор химических наук, профессор

**Официальные оппоненты**

**Камолов Лукмон Сирожиддинович**  
доктор химических наук, профессор

**Каримов Абдурашид Мусахонович**  
доктор химических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Кокандский государственный университет**

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_ часов на заседании Научного совета № PhD.03/30.12.2019.K.05.01 при Ферганском государственном университете (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-936 [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (регистрационный номер № \_\_\_\_\_). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93; e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)).

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года.

(Реестр протокола рассылки \_\_\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года).

**А.А.Ибрагимов**  
Председатель Научного совета по  
присуждению учёной степени,  
доктор химических наук, профессор

**К.М.Шергозиев**  
Учёный секретарь Научного  
совета по присуждению учёной степени,  
доктор философии по химическим наукам (PhD)

**Ш.В.Абдуллаев**  
Председатель Научного семинара  
при Научном совете по присуждению учёной степени,  
доктор химических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире уделяется большое внимание исследованию биологически активных веществ в растениях и их биологической активности. Важнейшим является изучение минерального и органического состава растений, их биологической активности, а также создание на их основе селективных и экологически безопасных лекарственных средств. Алкалоиды - важный класс биологически активных веществ, обладающих разнообразной физиологической активностью, выделяющихся среди других классов соединений при создании и применении лекарственных препаратов для лечения различных заболеваний. Поэтому особую важность приобретает изучение химического состава природного сырья, содержащего биологически активные соединения, такие как алкалоиды, и разработка на их основе лекарственных средств для медицинской и сельскохозяйственной отраслей.

В мире проводятся научные исследования по выделению алкалоидов и других соединений из растений семейства *Papaveraceae*, которые считаются источником различных биологически активных соединений. Из растений рода *Roemeria* выделены алкалоиды, флавоноиды и другие соединения. В связи с этим особое внимание уделяется анализу химического состава растений *R. hybrida* и *R. refracta*, выделению индивидуальных биологически активных соединений, определению их химической структуры и биологической активности, созданию на их основе различных лекарственных препаратов с новыми механизмами действия.

На основе местных лекарственных растений, широко распространенных во флоре нашей республики, были предприняты комплексные меры по созданию новых лекарственных средств различного действия, обеспечению населения качественными лекарственными средствами, достигнуты определенные результаты. В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 “о новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы” внедрение методов получения лекарственных средств и биологически активных добавок имеет важное значение “увеличение объемов производства продукции фармацевтической промышленности в 3 раза и доведения уровня обеспеченности местного рынка до 80 процентов”. В связи с этим приобретает важное значение изучение химического состава и биологической активности широко распространённых во флоре Узбекистана растений *R. hybrida* и *R. refracta* и создание на их основе лекарственных средств.

В нашей республике реализуются комплексные меры по созданию новых лекарственных средств с различным действием на основе местных лекарственных растений, широко распространенных во флоре, а также по обеспечению населения качественными лекарственными средствами и достигнуты определенные результаты. В соответствии с Указом

